



BUXORO VILOYAT QISHLOQ XO‘JALIK TARMOQLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TAS‘SIR ETUVCHI OMILLAR

Ergashev Anvar Karimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrası o‘qituvchisi

Malikova Go‘zal Axmadjon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining qishloq xo‘jalik tarmoqlari, ushbu tarmoqlarning joylashishi va rivojlanishiga tasir e‘tivchi omillar yoritib berilgan. O‘rganishlar asosida qishloq xo‘jaligiga ta‘sir etuvchi omillar 5 ta toifaga ajratilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro viloyati, qishloq xo‘jaligi, tabiiy-geografik omil, ijtimoiy-iqtisodiy omil, demografik omil, texnologik omil, va ekologik omillar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сельскохозяйственные отрасли Бухарской области, факторы, влияющие на размещение и развитие этих отраслей. На основе проведенных исследований факторы, влияющие на сельское хозяйство, разделены на 5 категорий.

Ключевые слова: Бухарская область, сельское хозяйство, природно-географические факторы, социально-экономические факторы, демографические факторы, технологические факторы и факторы окружающей среды.



Abstract: This article discusses the agricultural sectors of Bukhara region, the factors influencing the location and development of these sectors. Based on the studies, the factors influencing agriculture are divided into 5 categories.

Keywords: Bukhara region, agriculture, natural and geographical factors, socio-economic factors, demographic factors, technological factors, and environmental factors.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyoti va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik Buxoro viloyatining yetakchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir vaqtda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda dehqonchilik va chorvachilik sohalarini yanada rivojlantirish maqsadida jahon tajribasi o‘rganilib, yangi texnologiyalar qo‘llanilayotgani, ayniqsa o‘simliklarning serhosil navlari, chorvaning mahsuldor zotlari keltirib mahalliy sharoitga iqlimlashtirilmoqda.[1]

Buxoro viloyat qishloq xo‘jaligiga ta’sir qiluvchi omillarni quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin: tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, texnologik va ekologik omillar.

1.Tabiiy omillar:

-Iqlim: Buxoro viloyati kontinental iqlimga ega bo‘lib, yoz issiq va quruq, qish esa salqin. Vegetatsiya davri uzun (210–220 kun), bu esa paxta, g‘alla, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishga imkon beradi. Lekin iqlimning quruqligi sug‘orishga bog‘liqlikni oshiradi. Paxtachilik va g‘allachilik uchun bu iqlim mos bo‘lsa-da, sabzavotlar va bog‘dorchilikda sug‘orishga katta ehtiyoj seziladi. Chorvachilikda esa yaylovlar yozda qurg‘oqchilikdan aziyat chekadi, bu esa ozuqa bazasini cheklaydi. Bundan tashqari



aholining iqlim o'zgarishiga moslashishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Issiqlikning oshishi va yomg'irlarning kamayishi hamda ob-havoning o'zgarishi natijasida hosilni kamayishi, yerlarning cho'llashiga olib kelishi mumkin.

-Tuproq: Viloyatda asosan bo'z tuproqlar, qumloq va sho'rxok yerlar mavjud. Sho'rlanish - katta muammo, ayniqsa paxta va bog'dorchilikda hosildorlikka salbiy ta'sir qiladi. Tuproq unumdorligini saqlash uchun ekin aylanishi va agrotexnik tadbirlar muhim. Tuproq eroziyasi hozirgi kunda jiddiy ekologik muammodir. Sug'orish va qishloq xo'jaligi faoliyatlari natijasida yerlarning unumdorligi pasayishi, tuproq eroziyasi kuchaytirishi mumkin. Birgina tuproqning o'zgarishi suv kamayishi, yerlarning cho'kishi hamda qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarishni pasaytirib yuboradi. Bu muammolarni hal qilish uchun yerni asrash, agrotexnik ishlarni amalga oshirish hamda meliorativ tadbirlarni olib borish lozim.

-Suv resurslari: Amudaryo orqali keladigan suv hisobiga sug'orish amalga oshiriladi. Viloyatning katta qismi tabiiy suv manbalariga kambag'al bo'lib, bu sug'orish inshootlarining samaradorligiga bog'liq. Suv tanqisligi hosildorlikka salbiy ta'sir qiladi. Suv tanqisligi ayniqsa yoz oylarida dolzarb bo'lib, sabzavotchilik va bog'dorchilikda keskin seziladi. Qurg'oqchil yillarda esa chorva uchun ozuqa yetishtirish qiyinlashadi

-Yerlardan foydalanish: Dehqonchilik, ayniqsa, paxtachilik va g'allachilik yaxshi rivojlangan, lekin yerlarning meliorativ holati doimiy nazoratni talab qiladi

2. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:

-Aholi bandligi: Qishloq aholisi sonining ko'pligi va ulardagi mehnat resurslari mavjudligi qishloq xo'jaligi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

-Yerni boshqarish tizimi: Buxoroda ko'plab fermer xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ammo ba'zilarida yer unumdorligidan samarali foydalanish hali ham dolzarb muammo. Kooperatsiya va klaster tizimlari joriy etilmoqda, ammo ularning samaradorligi har doim



ham yuqori emas. Fermer xo'jaliklari asosiy ishlab chiqaruvchilardir, lekin ayrim hududlarda yerni samarali boshqarish muammosi bor.

-Mehnat resurslari: Qishloq joylarda mehnat kuchi mavjud, ammo ayrim hollarda malaka yetishmaydi.

- Bozorga chiqish imkoniyatlari: Mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga chiqarish logistikasi, yo'l va infratuzilma holatiga bog'liq. Buxoro shahri va boshqa yirik markazlar yaqin bo'lsa-da, transport infratuzilmasi ba'zan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z vaqtida va sifatli yetkazib berishda muammo tug'diradi.

Chorvachilik mahsulotlari (sut, go'sht) tez buziladiganligi sababli, muzlatish va qayta ishlash muassasalari yetishmaydi. Mamlakatning iqtisodiy hududlari orasida yer resurslari serob, ekin maydonlari keng hisoblangan hududlar Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro, Qoraqalpog'iston bo'lib, ularda aholi jon boshiga 2,4 ga qishloq xo'jaligi yerlari, shu jumladan 1,5 ga shudgorlanadigan yer to'g'ri keladi. Eng kam ta'minlangan hudud esa Farg'ona vodiysi bo'lib, bu hududda kishi boshiga 0,44 ga qishloq xo'jalik ekin yem va 0,22 ga shudgorlanadigan yer to'g'ri keladi. Binobarin, iqtisodiy tumanlarning hududiy kengligi va tabiiy iqtisodiy sharoitlari xilma-xilligi tufayli ular orasida yer ta'minoti borasida ham jiddiy farqlar ko'zga tashlanadi. Bu farqlar oziq-ovqat va xomashyo borasida o'zaro bog'liq hududlarni iqtisodiy zonalar orasidagina emas, ularning tarkibiga kiruvchi sub'ektlar orasida ham rivojlantirish zaruratini belgilab beradi. Hududlarni xususiy ishlab chiqarish hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlash talab darajasi va strukturasi bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar aholi daromadlari, milliy va maishiy an'analar, demografik struktura, oziqovqatlarning yetarliligi, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarining o'lchamiga ham bog'liq. O'zbekiston Respublikasida inqirozga bo'lgan davrda aholi jon boshiga ba'zi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini nisbatan yuqori darajada iste'mol qilinishi kuzatila boshlandi. Mamlakatning ba'zi hududlarida non va non mahsulotlari, kartoshka, shakar, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'molining ortib ketgani, go'sht, o'simlik yog'i,



sabzavotlar, mevalar iste'moli kamaygani bilan farqlandi. Shuningdek eng qimmat mahsulotlarning import narxi ko'tarilishi sababli ularning iste'moli keskin kamaydi. Korxonaning joylashish o'rni qishloq xo'jaligini joylashtirishning muhim omillaridan biridir. Mahsulotlarni saqlash va transportirovka qilish qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'ziga xos xususiyati bo'lib, transport qatnov yo'llari, saqlash joylari, qayta ishlash korxonalarining joylashuvi kabilarni ham nazardan qochirmaslik, muhim omil sifatida ko'rib chiqish lozim. Temir yo'llar, suv yo'llari, transport vositalari bilan ta'minlanganlik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish, maxsus korxonalarni takomillashtirish, tovarlarni iste'molchilarga yetkazib berish muddatlarini kam aytirish va shu orqali yuklarni tashish bo'yicha xarajatlarni sezilarli qisqartirish imkonini beradi. Transport vositalari va aloqa yo'llarining rivojlanishi ko'p tonnali va tez buziladigan mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash joylariga zudlik bilan yetkazishni ta'minlaydi. Sut, sabzavot, meva va kartoshka kabi mahsulotlarning sifati tez buzilishini inobatga olgan holda bu kabi mahsulotlar ishlab chiqarishni to'g'ri joylashtirish juda muhimdir. Nooqilona tashishga yo'l qo'ymaslik uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish yirik shaharlarning atrofiga jamlanadi, qayta ishlash korxonalarini esa (meva konservalari qiladigan, vinochilik va boshqalar) xomashyo ishlab chiqariladigan joylarga yaqinroq joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda yo'qotishlar kam ayishiga, ishlab chiqarish samaradorligi ortishiga erishiladi.[2]

3. Demografik omillar,

- Aholining o'sish sur'ati: Mehnat resurslari sonining ortib borishi bilan qishloq xo'jaligi faoliyatlarining diversifikatsiyasi yuz beradi.

-Ishchi kuchining migratsiyasi: Tashqi migratsiya tufayli mehnat resurslarida qisqarish kuzatiladi, bu esa ayrim hududlarda ishchi kuchi tanqisligiga olib keladi.

Bundan tashqari aholi sonining o'sib borishi natijasida qishloq xo'jaligi faoliyatining intensivlashuviga olib kelmoqda. Ko'plab oilalar uchun qishloq xo'jaligi asosiy daromad



manbai hisoblanadi. Aholi tarkibi ham qishloq xo'jaligiga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. Chunki ko'plab yoshlar o'qish yoki ish izlab shahar markazlariga migratsiya qilmoqda, bu esa yerlarning ekspluatatsiya va ishlab chiqarishning samaradorligiga ta'sir qiladi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishida shu sohada ishlaydigan insonlarning ta'lim darajasi va ma'lumoti ham muhim ahamiyatga ega. Hududlarda qishloq xo'jaligi sohasida malakali mutaxasislarni yetishmasligi samarali ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Aholining ta'lim darajasi oshirilsa, qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish osonlashtiradi. Buxoroda qishloq xo'jaligi sohasi ishchilari ko'p bo'lsada ularning ko'pisi iqtisodiy jihatdan zaif hisoblanadi. Yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlikni oshirish uchun ijtimoiy dasturlar, qishloq aholisi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimlari muhim ahamiyatga ega.

4. Texnologik omillar:

- Texnika va texnologiya darajasi: Ko'plab xo'jaliklarda eskirgan texnikalar ishlatiladi, bu esa hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlanganlik darajasi hosildorlikka bevosita ta'sir qiladi. Sabzavotchilik va bog'dorchilikda mexanizatsiya darajasi past, ko'p ish qo'lda bajariladi.

- Sug'orish tizimlari: Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligi asosan sug'orishga bog'liq. Sug'orish uchub zarur bo'lgan suv resurslari asosan Amudaryo va uning tarmoqlaridan olinadi. Ko'p joylarda an'anaviy usullar qo'llaniladi, bu esa suvdan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi. Asosan ochiq kanallar orqali sug'oriladi, bu esa suv isrofini keltirib chiqaradi. Tomchilatib sug'orish tizimlari hali keng joriy etilmagan, lekin u sabzavot va bog'lar uchun ayniqsa muhim. Suvning salbiy ta'siri shundaki, sug'orish tizimlarining eskirganligi va suvning ifloslanishi qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ortiqcha suv surfi va suvning to'g'ri taqsimlanmasligi mintaqada ekologiyasiga zarar yetkazishi mumkin.



-Ilm-fan yutuqlarini joriy qilish: Zamonaviy agrotexnikani, urug'liklarni va texnologiyalarni joriy qilish sust kechmoqda. Agrar sohada ilmiy-tadqiqot institutlari tavsiyalari asosida ish yuritilsa, hosildorlik va sifat oshadi. Yangi navlar, o'g'itlar, biologik vositalar ko'p hollarda yetarlicha tatbiq etilmayapti. Chorvachilikda genetik yaxshilanish, zamonaviy ozuqalandirish tizimlari sust rivojlangan.

5. Ekologik omillar:

-Sho'rlanish va yer degradatsiyasi: Bu viloyatda keng tarqalgan muammolardan biri bo'lib, yer unumdorligini kamaytiradi. Degradatsiyalangan yerlar va sho'rlanish bilan kurashish, ekotizimni saqlash muhim agroekologik choralar hisoblanadi. Yerlarning sho'rlanishi paxtachilik va bog'dorchilikda hosildorlikni kamaytiradi. Yerni haddan tashqari ishlatish va noto'g'ri sug'orish usullari degradatsiyaga olib kelmoqda.

-Cho'llanish xavfi: Iqlim isishi va noto'g'ri yer foydalanishi natijasida ayrim hududlar cho'llanish xavfi ostida. Cho'l zonalar yaqinligi va shamolli iqlim tuproq eroziyasi va chang bo'ronlariga olib keladi. Iqlim isishi tufayli vegetatsiya davri o'zgarib bormoqda, bu ekish va hosil yig'ish muddatlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun avvalo uni to'g'ri joylashtirish lozim. Qishloq xo'jaligini joylashtirish bu alohida tur mahsulotlar ishlab chiqarishni mamlakatning viloyat, tuman va boshqa hududlar bo'ylab taqsimlash bo'lib, jarayon uzoq davon etuvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ko'ra o'zgaruvchidir. Qishloq xo'jaligining eng to'liq joylashtirilishi ushbu hudduda ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda u yoki bu turdagi yalpi va tovar mahsulotlarining umumiy hajmidagi alohida hududlarning hissasi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari birgina uni ishlab chiqarish hajmini o'stirishdagi mehnat va mablag' hajmini minimallashtirish hamda yerdan, moddiy mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish uchun ushbu hududda boshqa joylarga nisbatan qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxi miqdorini eng past darajaga olib



chiqish kerak. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun subyektlar, iqtisodiy tumanlar, tabiiy zonalarining ko'p yillik ma'lumotlari bo'yicha jiddiy tahlillar o'tkazishni taqazo etadi. Shu bilan birga bozor talablarini hisobga olish hamda talab eng yuqori bo'lgan mahsulotlarni bozorga joylashtirish, hududda yuzaga kelgan ishlab chiqarish shartlari, past rentabelli mahsulotlar ishlab chiqarishni oldini olish va qishloq xo'jaligida ixtisoslashuvi, konsentratsiyalashuvini moslashtirgan holda amalga oshirish lozim. Har bir hudud iste'molchilarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlash, bundan tashqari xalqaro va hududlaro mehnat taqsimotini bog'liqligini hisobga olish kerak. Hududlarda mahsulotlarni yetishtirish, ularni qayta ishlash va tashqi va ichki bozorlarga yetkazib berilishini ta'minlash kerak. Bu albatta qishloq xo'jaligi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligini joylashtirishning eng asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

- hududning tabiiy potentsiali;
- yer bilan ta'minlanganlik (hudud aholisi jonboshiga to'g'ri keladigan haydaladigan shudgor, ozuqa yerlari ajratilgan holda qishloq xo'jaligi yerining maydoni);
- mahsulot sotish bozorlariga nisbatan xo'jalikning joylashgan o'rni;
- xomashyolarni saqlash va transport vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- aholining tabiiy, tarixiy malakalarini hisobga olgan holda hududning ish bilan ta'minlanganligi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini mukammallashtirish;
- hududda mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi.

Qishloq xo'jaligining tabiiy potentsial (imkoniyat) larini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: tuproq sifati, quyoshli kunlar davomiyligi, faol harorat miqdori (issiqlik bilan ta'minlanganlik) umumiy quyosh radiatsiyasi (yorug'lik bilan ta'minlanganlik), namlik sharoiti - yog'ingarchiliklar miqdori, suv resurslari bilan ta'minlanganlik, ob-havo sharoitning noqulay kelishi ehtimoli (qurg'oqchilik, sovuq urishi,



sham ol va suv eroziyasi), joylashish sharoitlari va boshqalar. Ushbu omillar qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarga turlicha ta'sir etadi. Dehqonchilik (ziroatchilik)da issiqlikni va namlikni ko'p talab qiluvchi ekinlarni tabiiy sharoitlarga qarab joylashtirish talab etiladi. Uncha katta bo'lmagan maydonlarga don uchun makkajo'xori, sabzavotlarning ba'zi turlari (baqlajon, uzum) mevali ekinlar (o'riklar, shaftolilar, sitrus mevalar, uzum) ekiladi. Tabiiy potentsiallari o'stirishga uncha bog'liq bo'lmagan va tabiat sharoitlari jiddiy farqlanadigan hududlarda yetishtiriladigan ekinlarda hosildorlik, mahsulot sifati, xarajatlar darajasi (lalmi va kuzgi bug'doy, qand lavlagi, kungaboqar) keskin farq qiladi. Chorvachilikni joylashtirishda tabiiy omillar uncha jiddiy ta'sir qilmaydi, tabiiy iqlim sharoitlari asosan ozuqa zahiralarga ta'sir qilishi mumkin. Yaylovda boqiladigan chorvachilik (qo'ychilik, molchilik, yilqichilik va boshqalar) ham tabiiy omillarga eng ko'p bog'liq bo'lgan omildir. Bunda yaylovlarning mavjudligi, ularning o'lchami, o'simliklari tarkibi, ulardan foydalanish davrining davomiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy sharoitlar bilan bir qatorda mehnatning hududlararo bo'linishiga ta'sir etuvchi muhim omil - mamlakat yoki hududning oziqovqat bilan ta'minlanadigan aholisi sonining qishloq xo'jalik yer maydoni va mahsulot eksporti orasidagi nisbatida namoyon bo'ladi. Ushbu omilning miqdoriy tasnifi yer bilan ta'minlanganlik, ya'ni yaylov, o'tloq, ko'p yillik ko'chatlar ajratilgan holda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jalik ekinlari maydonidir.[5]

Buxoro viloyatining qishloq xo'jaligi boshqarmasi vazifalari va funksiyalarini tahlil qiladigan bo'lsam Buxoro viloyatida birinchi navbatda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, ilg'or tajriba va fan yutuqlarini, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishni nazarda tutuvchi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;[3]

– qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda zamonaviy kooperatsiya munosabatlarini kengaytirish orqali qishloq



xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati zanjiri yaratilishini rag‘batlantirish;

– agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

– agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligiga, hosildorligi past yerlar unumdorligini oshirishga, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga ko‘maklashadigan qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;

– keng ko‘lamli zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va sifatli qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rag‘batlantirish;

– qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini tayyorlash, foydalanish va eksport qilishning zamonaviy tizimini shakllantirish, mahalliy va xorijiy seleksiya navlari, shu jumladan biotexnologik navlarning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish va rivojlantirish;

– o‘simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, zararkunandalar va begona o‘tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;– ta‘lim, fan va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tizimli asosda uzviy integratsiyalashni, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining yuqori malakali soha mutaxassislariga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta‘minlash. [4]



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Soliyev. O'zbekiston geografiyasi , (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) Toshkent "UNIVERSITET" 2014
2. Buxoro viloyatining statistik axborotnomasi 2024-yi yanvar-dekabr .Buxoro-2025
3. B.N.Navruz-Zoda, N.N.Asqarov, A.J.Abdullayev Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va ulardan respublikamizda. Ilmiy-amaliy qo'llanma. "Durdona" nashriyoti, Buxoro – 2016.
4. M.A.Oripov taxriri ostidagi Monografiya. Buxoro viloyatida Chorvachilik ozuqa bazasi va mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlanishi, "Durdona " nashriyoti Buxoro 2018
5. Ergasehv A.K. Kogon tuman qishloq xo'jaligining geografik jihatlari. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. 2023
6. <https://agro-olam.uz/>
7. <https://www.agro.uz>
8. <https://www.buxstat.uz>